

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Yakubov Akmal

SOVET HOKIMIYATINING TURKISTONDA SOVET RESPUBLIKALARINI BARPO ETISH BO'YICHA SIYOSATI	09-21
--	-------

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

МЕЖДУ ДИПЛОМАТИЕЙ И ИМПЕРСКОЙ СТРАТЕГИЕЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ МУХАММАДА РАХИМХАНА I (1806–1825 гг.)	22-31
--	-------

Gadoyev Dadaxon Xayrulloevich

DEGGARON MASJIDINING SOVET O'LKASHUNOSLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI	32-47
---	-------

Dadajonov Tursunboy Abdusamatovich

QO'QON XONLIGI DAVRIDA HARBIY KUCHLARNING QUROL-ASLAHALAR BILAN TA'MINLANISHI VA MODDIY BAZASINING RIVOJLANISH JARAYONI	48-53
--	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Umurzaqova Umida Nosirjanovna, Gafurjonov Jamshidbek Furkat o'g'li

SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-EKOLOGIK OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI BO'YICHA JAHON TAJRIBASI TAHLILI	54-58
---	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Yunusova Manzuraxon Pazliddinovna

O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINI FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM INSTITUTI SIFATIDA ISLOH ETISH JARAYONI	59-68
--	-------

Karimov Xurshid Abdumannabovich

AN'ANA VA AXLOQIY UNIVERSALIZM – FALSAFIY KOMPARATIVISTIKA KONTEKSTIDA	69-74
---	-------

Egamberdiyev Baxriddin Baxodir o'g'li

O'ZBEKISTONDA MAHALLIY ODATLAR VA MAROSIMLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNING FALSAFIY-TARIXIY MOHIYATI.....	75-82
---	-------

Norqulov Shahzod Shuhrat o'g'li

IJTIMOIIY REKLAMA TUSHUNCHASI: MOHIYAT VA FUNKSIYALAR	83-87
---	-------

Beshimov Xamidjon Sayidovich

FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA INSON QADRINI BELGILASH MEZONLARI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYATDA INSON QADRINI TA'MINLASHDA KASABA UYUSHMALARINING ROLI.....	88-96
--	-------

Нишонов Сарвар Жасур угли

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ СМЫСЛООБРАЗУЮЩИХ КАТЕГОРИЙ СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ЛИЧНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ХУСЕЙНА ВАИЗА КАШИФИ)..	97-105
---	--------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Uzakova Go'zal Sharipovna

SHAHARLARDA ATROF MUHIT MASALALARINI HAL ETISHDA JAMOATCHILIK
ISHTIROKINI TA'MINLASHNING HUQUQIY MASALALARI..... 106-112

Eshimbetov G'ulomjon Sultonbayevich

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING KADRLAR BILAN ISHLASH XIZMATLARI
FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI 113-122

Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich

JAZONI IJRO ETISH MUASSASASIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY
REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH TUSHUNCHASI
HAMDA IJTIMOY ZARURATI 123-132

Марданов Жасурбек Отабек угли

УГОЛОВНОЕ ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ВОВЛЕЧЕНИЯ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНЕГО В
АНТИСОЦИАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ 133-138

Mamadjonov Temurali Barotjon o'g'li

FUQARONI BEDARAK YO'QOLGAN DEB TOPISH VA VAFOT ETGAN
DEB E'LOH QILISHNING AYRIM MASALALARI 139-143

Jumumbetov Rasul Jengizbayevich

GEOGRAFIK KO'RSATKICHLARDAN FOYDALANISH HUQUQIY
TA'MINLASH MUAMMOLARI 144-150

Suyunov Bobir Bahodirovich,

RAQAMLI JAMIYATDA TALON-TAROJLIK:
KIBER-XAVFLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI..... 151-155

Kdirbaeva Altinay Maksetbaevna

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA XOTIN-QIZLAR XIZMAT O'TASH TARTIBINI
BELGILASHGA DOIR RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASINING ILMIY TAHLILI 156-163

Abduhoshimov Ismoil Abdug'ani o'g'li

KORRUPSION JINOYATLARNING O'ZIGA XOS TAHLILI..... 164-168

Хошимова Юлдузхон Олимжоновна

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИЗНАНИЯ ОБЩЕИЗВЕСТНЫХ
ТОВАРНЫХ ЗНАКОВ 169-175

Abdugaffarov Davronbek Dilshod ugli

ALIGNING UZBEKISTAN'S PRIVATE INTERNATIONAL LAW WITH WTO PRINCIPLES:
THE ROLE OF CHOICE OF LAW IN GATS IMPLEMENTATION 176-180

Aripov Abid Adilovich

O'ZBEKISTONDA CHET EL FUQAROSI TUSHUNCHASI VA HUQUQIY MAQOMI..... 181-189

Tolibbayeva Malika Ulmasjon qizi

ADVOKATNING IQTISODIY VA FUQAROLIK PROTSESSIDAGI ISHTIROKI:
XORIJIY VA MILLIY QONUNCHILIK TAHLILI..... 190-197

Нормуродова Азиза Азимжон кизи

СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ
УЗБЕКИСТАН: ОЦЕНКА ДЕЙСТВУЮЩЕГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА И ПУТИ ЕГО
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ 198-204

Abdullayeva Parvina Baxrillovna

RAQAMLI PLATFORMALAR BILAN BOG'LIQ TUSHUNCHALAR TALQINI 205-212

Nurmatov Jasur

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINING RETROSPEKTIV TAHLILI	213-222
---	---------

Шадуева Сайёра Арифовна

ОСОБЕННОСТИ РАССМОТРЕНИЯ ДЕЛ О ПРИМЕНЕНИИ МЕР ПРАВОВОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ К СУБЪЕКТАМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	223-233
--	---------

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Umarov Bahrom Norboyevich

DARSLIK MANTLARI VA KOMPETENSIYA PARADIGMASI: NISBAT MUNOSABAT VA O'ZARO BOG'LIKLIK ("ONA TILI DARSLIGI MISOLIDA").....	234-241
--	---------

Qurbonova Barchinoy Mirzahamdammovna

TOPOGRAFIK KARTALARGA OID TUSHUNCHALAR, ENG MUHIM SHARTLI BELGILAR VA LANDSHAFT DIZAYNIDA ICHKI FAZOVIIY MUHIT, HAJMIY SHAKL VA TEVARAK-ATROF	242-246
---	---------

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

QALAMTASVIRDA GEOMETRIK SHAKLLARDAN TASHKIL TOPGAN NATYURMORT HAMDA TEXNIK VA SAN'AT FANLARINI TURLI FANLAR BILAN INTEGRATIV HAMDA SINERGETIK O'QITISHNI NAZARIY YECHIMLARI	247-251
---	---------

Temple Chimuany Odimegwu

REVIEW ON FILLER EFFECT OF VARIOUS NONREACTIVE MATERIALS IN CONCRETE	252-265
---	---------

Arustamyan Yana Yuryevna, Toshpo'latov Omonulloxon Ulmas o'g'li

O'ZBEKISTON XUSUSIIY UNIVERSITETLARIDA TA'LIMNI BOSHQARISHNING HOZIRGI HOLATI, STRATEGIK YECHIMLARI VA ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISH SSENARIYLARI	266-271
--	---------

Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi

INNOVATSION YONDASHUVNING BO'LAJAK PEDAGOG VA TARBIYACHILARNING IJODIIY KOMPETENSIYASIGA TA'SIRI	272-277
---	---------

Otamuratov Maqsudbek Shonazarovich

O'ZBEKISTON OLIY TA'LIMIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING PEDAGOGIK ASOSLARI VA UNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI	278-283
---	---------

Kurbonova Shoxsanam

TASVIRIIY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA O'QUVCHILAR O'QUV-IJODIIY FAOLIYATINI INTEGRATIV RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	284-289
--	---------

Toxirov Shaxzod Toxirovich

IJTIMOIIY INTELEKTNING TARKIBIIY QISMLARI VA UNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI.....	290-294
--	---------

Raximdzhanova Malikaxon Gapurdzhanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna

GLOBAL KONTEKSTLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYA UCHUN TANQIDIIY FIKRLASH	295-300
---	---------

Received: 16 December 2025

Accepted: 1 January 2026

Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

SOME ISSUES OF FINDING A CITIZEN AS MISSING AND DECLARING THEM AS DEAD

Mamadjonov Temurali Barotjon oglu

Head of the Chust District Internal Affairs Directorate, Captain

Abstract. This article examines certain theoretical and practical issues related to the institution of recognizing a citizen as missing and declaring him or her deceased. In the context of globalization and technological development, the study analyzes the justification of statutory time limits for declaring a person deceased, the identification of cases of deliberate concealment, the content of the concept of an "interested person," and the procedural legal status of creditors. Particular attention is paid to the mechanism of trust management of the missing person's property and the difficulties in restoring property rights when a citizen declared deceased later returns. The article also assesses the compliance of current civil legislation with the principle of effective protection of human rights. Based on the analysis, scientifically grounded proposals for improving civil legislation are presented.

Keywords: missing person, declaration of death, interested person, creditors, trust management, restoration of property rights.

FUQARONI BEDARAK YO'QOLGAN DEB TOPISH VA VAFOT ETGAN DEB E'LON QILISHNING AYRIM MASALALARI

Mamadjonov Temurali Barotjon o'g'li

Chust tumani IIB TQX JQB boshlig'i, kapitan

Annotatsiya. Mazkur maqolada fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish va vafot etgan deb e'lon qilish institutining ayrim nazariy va amaliy masalalari tahlil qilingan. Zamonaviy globallashtirish va texnologik rivojlanish sharoitida ushbu institutni qo'llashda yuzaga kelayotgan muammolar, xususan, vafot etgan deb e'lon qilish uchun belgilangan muddatning asoslanganligi, qasddan yashirinish holatlarini aniqlash, "manfaatdor shaxs" tushunchasining mazmuni hamda kreditorlarning protsessual huquqiy maqomi yoritib berilgan. Shuningdek, bedarak yo'qolgan shaxsning mol-mulkini ishonchli boshqarish mexanizmi, qaytib kelgan fuqaroning mulkiy huquqlarini tiklashdagi qiyinchiliklar va amaldagi qonunchilik normalarining inson huquqlarini samarali himoya qilish prinsipiga muvofiqligi tahlil qilingan. Maqolada fuqarolik qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: bedarak yo'qolgan fuqaro, vafot etgan deb e'lon qilish, manfaatdor shaxs, kreditorlar, ishonchli boshqaruv, mulkiy huquqlarni tiklash.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N16>

Bugungi shiddatli rivojlanish, globallashtirish jarayonlari va transport vositalarining keng tarqalishi sharoitida fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish va vafot etgan deb e'lon qilish masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. Bu institut shaxsning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Amaldagi qonunchilik fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish uchun uning yashash joyida uch yil davomida ma'lumot bo'lmasligi talab etiladi (FKning 36-m-moddasi). RF fuqarolik kodeksiga (RF GK 45-moddasi) ko'ra, bu muddat besh yilni tashkil etadi [1. 78-b]. RFda avval bu

muddat uch yil bo'lgani, hozirda esa telekommunikatsiyalar va texnologiyalar rivojlangan bir paytda besh yillik muddatning uzoqligi bir qator huquqiy muammolarni keltirib chiqargan. O'zbekiston qonunchiligida belgilangan uch yillik muddat, RF qonunchiligidagi besh yillik muddatga nisbatan qisqaroq va manfaatdor shaxslarning huquqlarini tezroq himoya qilish imkonini beradi.

Bu o'rinda savol tug'iladi: Texnologik rivojlanish nuqtai nazaridan, O'zbekistondagi uch yillik muddat yetarlimi yoki uni qisqartirish mantiqan to'g'rimi? Ayrim olimlarning fikricha, hozirgi sharoitda bu muddatning uzoqligi muammo hisoblanadi [2. 218-b]. Muddatni saqlab qolish yoki qisqartirish yuzasidan ilmiy asoslarni keltirish muhim.

Sud amaliyotida fuqaroning oilaviy yoki maishiy sabablarga ko'ra qasddan yashirinishi yoki oiladan ketishi holatlari ham uchraydi, bu esa uning vafot etgan deb e'lon qilinishiga olib kelishi mumkin. Sudning oldidagi asosiy masala — fuqaroning o'limi faktini aniqlash yoki uning sud yoki tergovdan qasddan yashirinayotgani haqida ma'lumot bor-yo'qligini aniqlashdir.[3. 73-b]

A.M.Terenyak qasddan yashirinish holatini taxmin qilishga yetarlicha asoslar bo'lsa, sudlarga bunday shaxsni bedarak yo'qolgan yoki vafot etgan deb topmaslik huquqini berish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi⁹. Bunday vaziyatlarda bedarak yo'qolgan shaxsni qidirish bo'yicha huquqni muhofaza qilish organlarining aniq va tezkor ishi talab etiladi.

FPK 306-moddasiga "sudya ishni muhokamaga tayyorlashda ichki ishlar organlaridan nafaqat ma'lumot so'rab oladi, balki fuqaroning qasddan yashirinishi yuzasidan asosli taxminlar mavjudligini aniqlash uchun alohida so'rov yuborish" majburiyatini kiritish maqsadga muvofiq.

O'zR FPK 305-moddasiga ko'ra, fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish yoki vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risidagi ariza manfaatdor shaxs tomonidan beriladi. Amaliyotda oila a'zolari bedarak yo'qolgan shaxsni bedarak deb topish jarayonini boshlamasligi, uning mulkidan uzoq vaqt davomida o'z xohishlaricha foydalanishi holatlari ko'p uchraydi. Bu esa kreditorlarning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarini buzadi.[4. 43-b]

Bu o'rinda kreditorlar ham manfaatdor shaxs sifatida ariza berish huquqiga egami? degan savol tug'iladi. Nazariy jihatdan "manfaatdor shaxs" keng tushuncha bo'lsa-da, buni qonunda aniq belgilash talab etiladi. Kreditorlarga fuqaroni bedarak yo'qolgan yoki vafot etgan deb topish tartibini qo'zg'atish huquqini to'g'ridan-to'g'ri berish imkoniyati mavjud bo'lishi lozim. Bu o'zgartirish kreditorlarga mulkni ishonchli boshqaruv jarayonida ishtirok etish imkoniyatini beradi. Hatto kreditorlarni ishonchli boshqaruvchi sifatida ko'rib chiqish ham mumkin.

FK 34-moddasiga ko'ra, bedarak yo'qolgan deb topilgan fuqaroning mol-mulkini doimiy suratda boshqarib turish zarur bo'lsa, bu mol-mulk sudning qaroriga muvofiq vasiylik va homiylik organi tomonidan belgilanadigan va ushbu organ bilan tuziladigan ishonchli boshqaruv to'g'risidagi shartnoma asosida ish olib boradigan shaxsga topshiriladi. Ushbu mol-mulkdan bedarak yo'qolgan shaxs qonunga muvofiq boqishi kerak bo'lgan fuqarolarga ta'minot beriladi va uning soliqlar va boshqa majburiyatlar bo'yicha qarzlari to'lanadi. Vasiylik va homiylik organi yo'qolgan fuqaroning qayerdaligi to'g'risida ma'lumot olingan kundan boshlab bir yil o'tganga qadar ham uning mol-mulkini muhofaza qiluvchi shaxsni belgilashi mumkin.

Bu o'rinda qaysi mulk "doimiy boshqarib turish zarur bo'lgan mol-mulk" hisoblanishi va qaysi mulk "qimmatli ko'char mulk" ekanligi FKda aniq ko'rsatilmagan. Natijada, qaysi mulkni

ishonchli boshqaruvga berish kerakligi tushunarsiz bo'lib qoladi. Fikrimizcha, ishonchli boshqaruvni talab qiladigan mulk turlarining (masalan, qimmatli qog'ozlar, intellektual mulk obyektlari, ko'chmas mulk majmualari) ochiq ro'yxatini yoki taxminiy mezonlarini belgilash huquqni qo'llash amaliyoti uchun foydali bo'ladi.

Vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaroning o'lgan kuni qonuniy kuchga kirgan sud qarori hisoblanadi. Agar insonning halok bo'lishi muayyan baxtsiz hodisadan bo'lishi ehtimoli taxmin qilinsa, sud fuqaroning o'lgan kunini uning taxmin qilingan halokat kuni deb topishi mumkin.[5. 325-b]

Birinchidan, shuni aytish kerakki, agar fuqaro nikohda bo'lgan va sudning o'lim haqidagi qarori chiqarilganligi sababli nikoh bekor qilingan bo'lsa, bunday fuqaro mol-mulkni qaytarishni faqat o'zining ulushi doirasida, xuddi ajralishdan keyingidek talab qilishi mumkin. Agar u vafot etgan deb e'lon qilinganidan so'ng qaytib kelib, nikohni tiklashni xohlasa, ikkinchi tomon yangi nikohga kirmaganligini inobatga olgan holda, ikkala fuqaroning arizasi talab qilinadi.

Ikkinchidan, xato tufayli vafot etgan deb e'lon qilingan shaxsning mol-mulkini qaytarish masalasi noqonuniy o'zga shaxs egaligidan mol-mulkni talab qilib olish normalari bilan chambarchas bog'liq. Agar fuqaroning mol-mulkini qaytarib berishdan bosh tortilsa, u nima qilishi kerak? Bunday holda, u sudga vindikatsion da'vo (mol-mulkni talab qilib olish haqidagi da'vo) arizasi bilan murojaat qilishi kerak bo'ladi. [6. 114-b]

Fikrimizcha, fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish va uni vafot etgan deb e'lon qilish jarayoni murakkab protsessual harakat ekanligiga e'tibor qaratishni istaymiz, chunki sudga berilgan arizada fuqaroning g'oyib bo'lganligi yoki vafot etganligi faktini tasdiqlovchi tegishli dalillarni ko'rsatish zarur. O'lim va g'oyib bo'lish faktlarini aniqlash masalalarini yoritib, fuqarolarning paydo bo'lishi (qaytib kelishi) o'zi bilan yuqorida aytilgan muayyan oqibatlarni keltirib chiqarishini ta'kidlash lozim.

Ushbu institut tahlilini o'tkazib, biz amaldagi fuqarolik qonunchiligi bunday masalada isloh qilinishini talab qilmaydi degan xulosaga keldik. Biroq, bedarak yo'qolgan deb e'lon qilingan shaxslarni samarali qidirish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Bu holda, biz aholining daktiloskopik ro'yxatdan o'tkazilishining ilmiy-texnikaviy ta'minotini takomillashtirishni zarur deb hisoblaymiz. Bu g'oyib bo'lgan shaxslarni muvaffaqiyatli va tez topish imkonini beradi.

FKning 37-moddasiga ko'ra, vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaro qaytib kelgan yoki uning qayerda turganligi ma'lum bo'lgan taqdirda, uni vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi qaror sud tomonidan bekor qilinadi. Fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi qaror bekor qilinganidan keyin u har qanday shaxsdan bu shaxsga bepul o'tib qolgan mavjud mol-mulkini o'ziga qaytarib berishni uch yil mobaynida sud orqali talab qilishga haqli, ushbu Kodeksning 229-moddasi ikkinchi va to'rtinchi qismlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Agar vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaroning mol-mulki uning vorislari tomonidan uchinchi shaxslarga sotilgan bo'lib, bu shaxslar xarid narxini fuqaro qaytib kelgan paytgacha batamom to'lamagan bo'lsalar, bu holda to'lanmagan summani talab qilish huquqi qaytib kelgan fuqaroga o'tadi. Vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaroning mol-mulkini haq to'lashni nazarda tutadigan bitimlar asosida olgan shaxslar mol-mulkni vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaroning tirikligini bila turib sotib olganliklari isbotlansa, ular fuqaroga bu mol-mulkni qaytarib berishlari shart. Bunday mol-mulkni asli holida qaytarib berishning imkoni bo'lmasa, uning qiymati to'lanadi. Agar vafot etgan deb e'lon qilingan shaxsning mol-mulki meros huquqi

bo'yicha davlatga o'tgan va sotib yuborilgan bo'lsa, fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi qaror bekor qilinganidan keyin unga mol-mulkni sotishdan tushgan pul qaytarib beriladi.

Demak, fuqaro qaytib kelganda, unga bepul o'tib qolgan mavjud mol-mulkni sud orqali talab qilish huquqi beriladi. Tekin bitimlar bo'yicha yangi eganing huquqlari himoyalangan. Haq to'lash evaziga tuzilgan bitimlar bo'yicha esa, qaytib kelgan shaxs yangi eganing sotib oluvchi uning tirikligini bilganini isbotlashi kerak. Amalda qaytib kelgan shaxsga o'z mulkini to'liq hajmda qaytarish deyarli imkonsiz. Bu inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining samarali huquqlarni tiklash haqidagi 8-moddasiga zid.[7. 13-b]

Fuqarolik kodeksining fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish va vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi normalarini asosiy takomillashtirish yo'nalishlari:

Kreditorlarga jarayonni qo'zg'atish huquqini aniq berish;

Qasddan yashirinish holatlarida sudning vakolatlarini kengaytirish;

Ishonchli boshqaruvga beriladigan mulk turlarini aniqlashtirish;

Qaytib kelgan fuqaroning huquqlarini de-fakto samarali tiklash mexanizmlarini takomillashtirish.

FKning 33-moddasi birinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq: 33-modda. Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish

Agar fuqaroning qayerdaligi haqida uning yashash joyida bir yil davomida ma'lumotlar bo'lmasa, ***qidiruv tadbirlari samarasiz bo'lganligi to'g'risida ichki ishlar organlarining ma'lumotnomasi mavjud bo'lgan taqdirda*** manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud bu fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topishi mumkin. ***Manfaatdor shaxslar qatoriga, agar ularning moliyaviy majburiyatlariga putur yetkazilgan bo'lsa, bedarak yo'qolgan yoki vafot etgan deb e'lon qilinishi so'ralayotgan shaxsning kreditorlari ham kiradi.***

FKning 34-moddasi ikkinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq: "34-modda. Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish oqibatlari

Doimiy suratda boshqarib turish zarur bo'lgan mol-mulk jumlasiga, xususan, ulushlar, qimmatli qog'ozlar, tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan ko'chmas mulk majmualari va boshqa tijorat ahamiyatiga ega bo'lgan aktivlar kiradi.

FKning 37-moddasi birinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq:

"37-modda. Vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaro qaytib kelishining oqibatlari

Fuqaro qaytib kelgan taqdirda, unga bepul yoki haq to'lash asosida o'tib ketgan mol-mulk, agar uchinchi shaxs uning tirik ekanligini bilmaganligi isbotlanmasa, qaytariladi."

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Гражданский кодекс Российской Федерации: Ч. 1, 2, 3, 4 : (по состоянию на 19. 10. 2019). — Москва, 2019. — 700 с.
2. Тереняк А.М. Некоторые проблемы института признания гражданина безвестно отсутствующим и объявления умершим // Скиф. 2020. №9 (49). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nekotorye-problemy-instituta-priznaniya-grazhdanina-bezvestno-otsutstvuyuschim-i-obyavleniya-umershim> (дата обращения: 27.11.2025).
3. Михайлова И.А. Теоретические и практические проблемы признания гражданина безвестно отсутствующим и объявления умершим. — Москва. — Наследственное право. — 2006. — N 2.

4. Овсиенко Е. В. Некоторые проблемы признания лица безвестно отсутствующим и объявления его умершим / Е. В. Овсиенко. — Текст : непосредственный, электронный // Право: история, теория, практика : материалы V Междунар. науч. конф. — Санкт-Петербург : Свое издательство, 2017. — С. 48-50. — URL: <https://moluch.ru/conf/law/archive/227/12699>
5. Смоленский М.Б., Астапова Е.В., Михайлов С.В. Гражданское право. // КноРус2021. С.325.
6. Леонова В.А., Усоян С.Р. Последствия явки лица признанного безвестно отсутствующим или объявленного умершим // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. 2021. №11-4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/posledstviya-yavki-litsa-priznannogo-bezvestno-otsutstvuyuschim-ili-obyavlenno-umershim> (дата обращения: 27.11.2025).
7. <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).